



INNOVATSION TEXNOLOGIK TOPSHIRIQLAR ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

G‘iyosiddinova Mahmuda
Alisher qizi

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.
giyosiddinovamahmuda@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini innovatsion texnologik topshiriqlar yordamida rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot doirasida an‘anaviy topshiriqlar hamda raqamli loyihalar, keys-stadi va muammoli vaziyatlarga asoslangan pedagogik texnologiyalarning talabalar ijodiy salohiyatiga ta‘siri solishtirildi. O‘tkazilgan eksperiment natijalari innovatsion topshiriqlar tizimi bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ tafakkur ko‘rsatkichlarini (ravanlik, originalik, moslashuvchanlik) sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: kreativ fikrlash, boshlang‘ich ta‘lim, bo‘lajak o‘qituvchi, innovatsion texnologik topshiriqlar, keys-stadi, divergent fikrlash.

Innovatsion texnologik topshiriq — bu o‘quvchilarning yoki talabalar faoliyatini mustaqil va ijodiy yondashuv asosida tashkil etish, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyati, kasbiy yo‘naltirilgan amaliy ko‘nikmalari va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi, zamonaviy raqamli texnologiyalar, interaktiv usullar hamda konstruktiv pedagogik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan didaktik topshiriq turidir. Bunday topshiriqlar o‘quv jarayoniga innovatsion elementlarni tatbiq etish orqali bilimlarni chuqur o‘zlashtirish, fanlararo bog‘liqlikni anglash, real va shartli muammolarni hal qilishda integrativ yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Ular, avvalo, o‘quvchi (yoki talaba)ning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda bilimlarni mustaqil izlanish va tahlil qilish orqali egallashiga, ilg‘or texnologiyalarni qo‘llagan holda amaliy mahsulot yaratishiga, jamoa ichida hamkorlikda faoliyat yuritishiga, o‘z fikrlarini asosli tarzda ifodalash va himoya qilishga yo‘naltirilgan. Innovatsion texnologik topshiriqlarning o‘ziga xos jihati shundaki, ular o‘quv faoliyatini faqatgina tayyor bilimlarni egallashdan iborat bo‘lmay, balki yangi bilim va tajriba hosil qilish, mavjud muammoni tahlil qilish, baholash va taklif ishlab chiqish kabi faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. Ular o‘zining texnologik jihatdan qurollangan, kreativlikni rag‘batlantiruvchi va refleksiv yondashuvni shakllantiruvchi xususiyatlari bilan an‘anaviy topshiriqlardan farq qiladi. Shuningdek, bunday topshiriqlarni amalga oshirish jarayonida talabalar raqamli platformalar, mobil ilovalar, onlayn hamkorlik vositalari, virtual muhitlar kabi

texnologik vositalardan foydalanadilar. Bu esa ularning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ongli va samarali foydalanish kompetensiyasini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining roli faqat tayyor bilimlarni yetkazuvchi emas, balki dars jarayoniga ijodiy va innovatsion yondashuvlarni olib kiruvchi subyekt sifatida belgilangan. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning funksional savodxonligi va ijodiy dunyoqarashini shakllantirish bevosita o'qituvchining kreativ kompetentligiga bog'liq. Biroq, oliy pedagogik ta'limda hamon nazariy bilimlarni yodlashga asoslangan an'anaviy metodlardan foydalanish holatlari uchraydi, bu esa talabalarda pedagogik muammolarga nostandart yechimlar topish ko'nikmasini cheklaydi.

Hozirgi zamon ta'limi jadal axborotlashuv, texnologik rivojlanish va o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy talablar bilan ajralib turadi. Bunday sharoitda ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsion yondashuvlar, interaktiv metodlar hamda raqamli vositalardan samarali foydalanish o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion texnologik topshiriqlarni ishlab chiqish va qo'llash zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

J. Guilford va E. Torrens kabi olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, kreativlik tashqi stimullar va tizimli muammoli topshiriqlar orqali rivojlantiriladigan dinamik xususiyatdir. Ushbu tadqiqotning maqsadi — innovatsion texnologik topshiriqlar (pedagogik keyslar, raqamli modellashtirish, loyihaviy o'qitish) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish samaradorligini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim samaradorligi nafaqat bilim, ko'nikma va malaka darajasi, balki talabalar tomonidan egallangan kreativ kompetensiyalar bilan ham bevosita bog'liqdir. Kreativ fikrlash mohiyatan shaxsning mavjud bilim, hayotiy tajriba va tushunchalardan foydalanib, yangicha yondashuvlar, original g'oyalar va innovatsion yechimlar ishlab chiqish qobiliyatidir. Bu tafakkur jarayoni, asosan, divergent fikrlashga tayanadi, ya'ni muammoni turli rakurslardan ko'rib chiqish, moslashuvchan qarorlar qabul qilish va o'ziga xos yechimlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida "innovatsion texnologik topshiriqlar", "kreativlik", "kreativ fikrlash" tushunchalari keng pedagogik asosda izohlandi. Ushbu asosda quyidagi mualliflik ta'rifi shakllantirildi: Kreativ fikrlash bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining mavjud bilim va tajribalarga tayanib, muammolarga nostandart, yangicha va innovatsion yondashuvlar orqali yechim topishga yo'naltirilgan tafakkur faoliyatidir.

Bu xususiyatlar, ayniqsa, innovatsion texnologik topshiriqlarning mazmunida ifodasini topganida, talabalar kreativ fikrlashining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Guilford, JP (1967). Inson aqlining tabiati. Nyu-York: McGraw-Hill. 138–167-betlar.

2. Torrance, EP (1974). Torrance ijodiy fikrlash testlari: Normlar-texnik qo'llanma. Lexington, MA: Ginn and Company. 3–28-betlar.

3. Muslimov, N. A., & b. (2015). Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: "Sano-standart" nashriyoti.

4. Sharipov, Sh. S. (2012). Talabalar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Toshkent.

5. Xodjayev, B. X. (2020). Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. Toshkent: "Sano-standart".